



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



ON SOME TEXTOLOGICAL PROBLEMS OF “KHAMSA”, “LISON UT-TAYR”, AND “WAQFIYA”

Odiljon Rahmatulloyevich Avaznazarov
Doctoral student (DSc) at Karshi State University
PhD, Associate Professor
Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Alisher Navoi, textual studies, Khamsa, Lison ut-Tayr, Waqfiya, scholarly-critical text, manuscript, terminological accuracy, popular edition.

Received: 21.09.25

Accepted: 22.09.25

Published: 23.09.25

Abstract: This article analyzes certain important issues in the textual studies of Alisher Navoi's works, using examples from Khamsa, Lison ut-Tayr, and Waqfiya. First, the discrepancy between the total volume of Khamsa as stated in textbooks and the amount mentioned by Khondamir is discussed, with an argument made for the need for rigorous scholarly investigation of this difference. The article also reveals misinterpretations of some verses in various editions of the poem Lison ut-Tayr: for example, confusion between the "fifth" and "seventh" heavens in a verse related to the Mi'raj-nama, and the semantic consequences of word differences such as "sharhi" and "shahri" or "bobuho" and "bobaho" in a verse about Hazrat Ali. Variants of an excerpt from Waqfiya found in different editions are compared, analyzing terminological (salavot – salot), phonetic-graphic (o'ruz – o'ttuz), syntactic-semantic (the completeness of a sentence about zakat), and legal-terminological (nasab – nişab) differences. The article emphasizes the importance of improving textual scholarship on Navoi's works, ensuring fidelity to the manuscripts, and finding a balance between critical editions and accessible forms suitable for contemporary readers.

“XAMSA”, “LISONU-T-TAYR” VA “VAQFIYA” MATNSHUNOSLIGIDAGI BA’ZI MUAMMOLAR XUSUSIDA

Odiljon Rahmatulloyevich Avaznazarov
QarshiDU doktoranti (DSc)

PhD, dotsent
Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Alisher Navoiy, matnshunoslik, “Xamsa”, “Lisonu-t-tayr”, “Vaqfiya”, ilmiy-tanqidiy matn, qoʻlyozma, terminologik aniqlik, ommabop nashr.

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy asarlari matnshunosligiga doir ayrim muhim masalalar “Xamsa”, “Lisonu-t-tayr” va “Vaqfiya” misolida tahlil etilgan. Avvalo, “Xamsa”ning umumiy hajmi masalasida darsliklarda keltirilgan miqdor bilan Xondamir maʼlumotidagi miqdor oʻrtasidagi tafovut muhokama qilinib, bu farqni jiddiy ilmiy tekshiruvga jalb qilish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, “Lisonu-t-tayr” dostonidagi ayrim baytlarning turli nashrlarda notoʻgʻri talqin qilinishi ochib beriladi: masalan, “Meʼrojnomaga” oid baytda “beshinchi” va “yettinchi” osmon ifodalarning chalkashligi, shuningdek, hazrati Ali haqidagi baytda “sharhi” va “shahri” hamda “bobuho” va “bobaho” soʻzlari orasidagi farqning semantik oqibatlari koʻrsatib berilgan. “Vaqfiya” olingan bir parchaning turli nashrlarda berilgan variantlari qiyoslanib, undagi terminologik (salavot – salot), fonetik-grafik (“oʻruz” – “oʻttuz”), sintaktik-semantik (zakot haqidagi jumlaning toʻliqligi) va fihiy-terminologik (“nasab” – “niʼsob”) tafovutlar tahlil qilinadi. Maqola Navoiy asarlari matnshunosligini yanada mukammallashtirish, qoʻlyozmaga sodiqlikni taʼminlash hamda tanqidiy nashrlar bilan zamonaviy oʻquvchi uchun mos shakllar oʻrtasidagi muvozanatni topish zarurligini koʻrsatadi.

О НЕКОТОРЫХ ТЕКСТОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМАХ “ХАМСЫ”, “ЛИСАН УТ-ТАЙР” И “ВАКФИЙИ”

Одилжон Рахматуллоевич Авазназаров
докторант (DSc) Каршинского государственного университета
PhD, доцент
Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Алишер Навои, текстология, Хамса, Лисан ут-Тайр, Вакфийя, научно-критический текст, рукопись, терминологическая точность, популярное издание.

Аннотация: В статье анализируются некоторые важные вопросы текстологии произведений Алишера Навои на примере Хамсы, Лисан ут-Тайра и Вакфийи. В первую очередь рассматривается расхождение между общим объемом Хамсы, указанным в учебниках, и количеством, приведённым у Хондамира,

обосновывается необходимость серьёзного научного изучения этой разницы. Также раскрываются ошибки в интерпретации отдельных байтов в различных изданиях поэмы Лисан ут-Тайр: например, путаница между "пятым" и "седьмым" небом в байте, связанном с Мираж-наме, а также семантические последствия различий в словах "шархи" и "шахри", "бобухо" и "бобахо" в байте о Хазрати Али. Сравниваются варианты одного фрагмента Вакфийи в разных изданиях, анализируются терминологические (салавот – салот), фонетико-графические (уруз – отуз), синтаксико-семантические (полнота предложения о закяте) и фикхово-терминологические (насаб – нисаб) различия. Статья подчёркивает необходимость дальнейшего совершенствования текстологической работы над наследием Навои, обеспечения верности рукописям и нахождения баланса между научно-критическими изданиями и формами, адаптированными для современного читателя.

Alisher Navoiy asarlari nashrlari o'rtasidagi farqlar matnshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, "Xamsa", "Lisonu-t-tayr" va "Vaqfiya" misolida bu muammolar yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Turli nashrlarda uchraydigan terminologik, fonetik-grafik va sintaktik tafovutlar nafaqat poetik-semantik qatlamni, balki diniy-irfoniy mazmunni ham noto'g'ri anglashga olib kelmoqda. Shu bois mazkur maqolada qo'lyozma va ilmiy-tanqidiy matnlarga tayangan holda mavjud chalkashliklar tahlil qilinib, aslyatga sodiq nashrlarni yaratish zarurligi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi.

"Xamsa"ning umumiy hajmi qancha?

Navoiyshunoslik tom ma'noda fan sifatida shakllanganidan buyon Nizomiddin Amir Alisher Navoiy ijodi xususida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, matnshunoslikdan tortib poetika ilmiga qadar bu yo'nalishda hali hamon hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar oz emas. Jumladan, darsliklarda ko'rsatilishicha, "Xamsa" 25617 baytdan iborat [9:54–168]. Biroq Navoiyning zamondoshi, shogirdi Xondamir "Xamsa"ning 27000 baytdan iborat ekanini ta'kidlaydi [11:91]. "Odamu-sh-shuaro" nisbasi bilan ulug'lanuvchi Rudakiy bizgacha yetib kelgan ming bayt atrofidagi asarlari bilan ming yildan buyon adabiyot tarixidan munosib o'rin egallab kelayotganini xotirga keltirsak, "Xamsa"ning bugungi nashrlari hamda Xondamirning

ma'lumoti orasidagi 1387 baytlik tafovut kichkina hajm emasligi, kelajakda matnshunoslikda Xondamir keltirgan fakt jiddiy tekshirilishi kerakligi anglashiladi.

“Lisonu-t-tayr”dagi ikki bayt matnshunosligi.

Dastlab dostonning “Me’roj” haqidagi bobida uchraydigan bir bayt matnshunosligini ko‘rib chiqamiz.

Mukammal asarlar to‘plamida:

Қилди чун еттинчи торамға убул,

Ҳиндуи мазлум деди Оллоҳи нур [2:14].

To‘la asarlar to‘plamida:

Qildi chun beshinchi toramg‘a ubur,

Hindui mazlum dedi Allohi nur [4:16].

Vahob Rahmon nashrida:

Qildi chun beshinchi toramg‘a ubur,

Hindui mazlum dedi Ollohi nur [5:17].

Shu nashr nasriy bayonida:

“Beshinchi ko‘kka o‘tganida, bechora hindu “Xudo nuri!” deb yubordi” [5:287].

Ilmiy-tanqidiy matnda [7:10]:

قىلدى چون يېتىنچى طارمغه عبور


هندوى مظلوم ديدى الله نور

Ushbu bayt aslida ilmiy-tanqidiy matn va 20 tomlik nashrda to‘g‘ri berilgan. Chunki gap 7-osmondagi Zuhul haqida ketyapti. Qolaversa, barcha nashrlarda mazkur baytdan 2 bayt oldinda beshinchi osmondagi Nahzi Asg‘ar, ya’ni Bahrom haqida so‘z boradi:

Soldi chun beshinchi ayvon sori ot,

Nahsi Asg‘ar Sa’d Akbar bo‘ldi bot [4:16].

Shu bois yuqorida zikr qilingan bayt “yettinchi” emas, “beshinchi” so‘zi bilan o‘qilsa, tadrij va ma’no buziladi. Qolaversa, bu bayt To‘pqopi saroy kutubxonasidagi mashhur qo‘lyozmalardan biri – “Kulliyoti Navoiy”da ham quyidagicha beriladi [6:20b]:



Dostonning chahoriyorlardan hazrati Ali haqidagi yana bir bayt matni bahstlab. Bu bayt haqida matnshunos olim, professor Nafas Shodmonov ham mulohazalar bildirgan [12:18-19].

Biroq Shundan keyingi nashrlarda ham muammo bartaraf etilmagani sababli yana bir bor ushbu masalaga diqqat qaratishni lozim topdik hamda dalillarni imkon qadar boyitdik.

“Lisonu-t-tayr”dagi ushbu bayt nashrlarda shu vaqtga qadar yanglish yozib kelinayotgani uchun dostonning ilmiy-tanqidiy matnidagi [7:16] to‘g‘ri shaklini keltiramiz:


علم شهرى انبياغه انتها
وصفى دا آيتيب على بابها

Ya’ni:

Ilm shahri anbiyog‘a intiho,

Vasfida aytib Aliyun bobuho.

Bayt “Kulliyoti Navoiy”da ham ayni shaklda yozilgan [6:21b]:



Mazkur bayt 20 tomlik Mukammal asarlar to‘plamida ham [2:24] (Ilm shahri anbiyog‘a intiho, / Vasfida aytib Aliyun bobaho), 10 jildli To‘la asarlar to‘plamida ham [4:24] (Ilm sharhi anbiyog‘a intiho, / Vasfida aytib Aliyun bobaho), boshqa nashrlarda ham [5:25] (Ilm sharhi anbiyog‘a intiho, / Vasfida aytib Aliyun bobaho) yanglish yozilgan. Natijada nasriy bayonni tayyorlashda ham, ma’noni anglashda ham chalkashlik yuzaga kelgan. Jumladan, nashrlarda mana bu tarzda yanglish nasriy bayon beriladi: “Ilm sharhi va nabilikda yetukligi uchun uning vasfida Alii bobaho deyishgan” [5:292].

To‘g‘ri nasriy bayonni shunday berish mumkin: “Ilm shahri bo‘lmish so‘nggi nabi uning vasfida “Aliyun bobuho” (Ali uning eshigidir) deb aytganlar”. Bayt iqtibos san‘atiga qurilgan bo‘lib, “Men ilm shahridirman, Ali esa uning eshigidir” ma’nosidagi hadisga ishora qiladi:

أنا مدينة العلم وعلّي بابها

Anaa madiynatu-l-ilmi va Aliyyun babuha.

“Vaqfiya” matnshunosligi muammolari: bir parcha misolida.

Ushbu asar matnshunosligidagi muammolarga mutaxassislar e’tiborini tortish uchun quyidagi birgina parchani keltirishni yetarli deb bildik.

Mukammal asarlar to‘plamida:

“...чун кишига абадий давлат ва сармади саодат ва ҳаёт чашмасининг навиди ва нажот манзилининг умиди исломнинг беш сутунлуқ зотулумодиға кирмагунча мумкин эрмас ва бу хамс-ул-муборак панжасига илик урмоғунча ҳеч иш натижа бермас. Аввал ул калимаи тавҳиддур. Шукрим они алифдек жоним орасида нақш этибмен. Иккинчи салавати

хамсадур. Биҳамдиллоҳким, они найдек зехн аро сабт қилибмен. Учунчи рамазоннинг ўруз кунининг рўзасидур. Шукруллоҳким, они ломдек қалбимда ёшурубмен. Тўртинчи закотдур. Жоним нақди ул тенгрига закотким, кўнглумга насабқа еткунча мол захира қилмағаймен, солмади ва насабқа етган мол закотин айирғунча илкимда қолмади. Бешинчи Ҳаждурур ва ул бай узри муяссар бўлмайин ҳамонки, ислом шахси бир кишига ўхшарким, онда хос хамсадин тўрти бору бас. Муқаррардурким, бешаласи – хоским бўлмаса муважжаб нуқсонни бўлур ва бу мазкур бўлгон икки орзудин бири муборак сафардурким, исломим шахси беш ҳисдин бирининг ўксуклуғи жиҳатидин ноқис бўлмағай ва мусулмонлиғим панжаси бир бармоқ йўқлиғидин маълул қолмағай” [3:266].

To‘la asarlar to‘plamida:

“...chun kishiga abadiy davlat va sarmadi saodat va hayot chashmasining navidi va najot manziling umidi islomning besh sutunluq zotulumodig‘a kirmaguncha mumkin ermas va bu xams-ul-muborak panjasiga ilik urmog‘uncha hech ish natija bermas. Avval ul kalimai tavhiddur. Shukrkim oni alifdek jonim orasida naqsh etibmen. Ikkinchi salavoti xamsadur. Bihamdillohkim, oni naydek zehn aro sabt qilibmen. Uchunchi ramazonning o‘ttuz kunining ro‘zasidur. Shukrullohkim, oni lomdek qalbimda yoshurubmen. To‘rtinchi zakotdur. Jonim naqdi ul Tengriga zakotkim, ko‘nglumga nasabqa yetkuncha mol zaxira qilmag‘aymen, solmadi va nisobqa yetgan mol zakotin ayirg‘uncha ilkimda qolmadi. Beshinchi Hajdurur va ul bay uzri muyassar bo‘lmayin hamonoki, islom shaxsi bir kishiga o‘xsharkim, onda xos xamsadin to‘rti boru bas. Muqarrardurkim, beshalasi – xoskim bo‘lmasa muvajjab nuqsoni bo‘lur va bu mazkur bo‘lg‘on ikki orzudin biri muborak safardurkim, islomim shaxsi besh hisdin birining o‘ksuklugi jihatidin noqis bo‘lmag‘ay va musulmonlig‘im panjasi bir barmoq yo‘qlig‘idin ma‘lul qolmag‘ay” [4:650-651].

Nurboy Jabborov tadqiqotlarida:

“...чун кишига абадий давлат ва сармади саодат ва ҳаёт чашмасининг навиди ва најот манзилининг умиди исломнинг беш сутунлик зоту-л-имодиға кирмагунча мумкин эрмас ва бу хамсу-л-муборак панжасиға илик урмагунча ҳеч иш натижа бермас. Аввал ул калимай тавҳиддур. Шукрким, они алифдек жоним орасида нақш этибмен. Иккинчи – салоти хамсадур. Биҳамдиллаҳким, они найдек зехн аро сабт қилибмен. Учунчи – Рамазоннинг ўттуз кунининг рўзасидур. Шукрулиллаҳким, они ломдек қалбимда ёшурубмен. Тўртинчи – закотдур. Жоним нақди ул Тенгрига закотим...” [8].

Abdulla Ulug‘ov nashrida:

“Бириси будурким, чун кишига абадий давлат ва сармади саодат ва ҳаёт чашмасининг навиди ва најот манзилининг умиди исломнинг беш сутунлуқ зотулумодиға кирмагунча мумкин эрмас ва бу хамс-ул-муборак панжасига илик урмоғунча ҳеч иш натижа бермас.

Аввал ул калимаи тавҳиддур. Шукрким они алифдек жоним орасида нақш этибмен. Иккинчи салавати хамсадур. Биҳамдиллоҳким, они найдек зеҳн аро сабт қилибмен. Учунчи рамазоннинг ўруз кунининг рўзасидур. Шукруллоҳким, они ломдек қалбимда ёшурубмен. Тўртинчи закотдур. Жоним нақди ул тенгрига закотким, кўнглумга насабқа еткунча мол захира қилмағаймен, солмади ва насабқа етган мол закотин айирғунча илкимда қолмади. Бешинчи Ҳаждур ва ул бай узри муяссар бўлмайин ҳамоноки, ислом шахси бир кишига ўхшарким, онда хос хамсадин тўрти бору бас. Муқаррардурким, бешаласи – хоским бўлмаса муважжаб нуқсони бўлур ва бу мазкур бўлғон икки орзудин бири муборак сафардурким, исломим шахси беш ҳисдин бирининг ўқсуқлуги жиҳатидин ноқис бўлмағай ва мусулмонлиғим панжаси бир бармоқ йўқлиғидин маълул қолмағай” [10:152–153].


Ogoh Sirri Levend tadqiqotlarida:

“Birisi bu durur kim, çün kişige ebedî devlet ve sermedî sa’âdet ve hayât çeşmesining nüvîdi ve necât menzilineğ ümmîdi, İslâmning biş sütünlük zâtü’l-‘imâdığa kirmegünçe mümkün irmes; bu hamsü’l-mübârek pencesiğe ilik urmağunça hiç iş netîce birmes. Evvel kelime-i tevhîd durur. Şükr kim anı “elif” dik cânım arasında naş itipmin. İkinci şalât-ı hamsedurur. Bihamdi’llâh kim anı “hi” dik zihnim ara şebt kılıpmin. Üçüncü ramazân otuz küning rûzesi durur. Şükrü lillah kim anı “lâm” dik qalbimde yaşurupmin. Dörtüncü zekât durur. Cānum naqdi ol Tinğrige zekât kim könğlümge nişābğa yitkünçe, māl zāhire kılmağı meylin salmadı ve nişābğa yitken māl zekātın ayırğunça ilikimde qalmadı. Bişinci hac durur ve ol bi’özri müyesser bolmayın. Hemānā ki İslām şahşı bir kişige oħşar kim anda havāş-ı hamseden tōrti bar. Bes muqarrer durur kim bişeseli havāş kimde kim bolmasa mücīb-i noqşanı bolur. Ve bu mezkūr bolğan iki ārzūdın biri bu mübârek sefer durur. Ümmîdim ol kim İslāmım şahşı biş hisdin birining öksüklüğü cihetidin nāqış bolmağay. Ve müselmānlığım pencesi bir barmaq yoqluğı sebebidin ma’lül qalmağay” [1:230].

Endi ushbu nashrdagi farqlarni jadvalga joylashtiramiz:

№	МАТ	TAT	N.Jabborov	A.Ulug‘ov	O.S.Levend
1	салавати хамса	salavoti xamsa	салоти хамса	салавати хамса	şalât-ı hamsedurur
2	найдек	naydek	найдек	найдек	“hi” dik
3	рамазоннинг ўруз куни	ramazonning o‘ttuz kuni	Рамазоннинг ўттуз куни	рамазоннинг ўруз куни	ramazân otuz küni
4	захира қилмағаймен	zaxira qilmag‘aymen	-	захира қилмағаймен	zāhire kılmağı meylin
5	насабқа	nasabqa	-	насабқа	nişābğa

Ushbu parcha “Kulliyoti Navoiy” da quyidagicha yozilgan va Ogoh Sirri variantini tasdiqlaydi [6:747b]:



O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Vaqfiya" parchasining turli nashrlardagi ko'rinishlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud bo'lib, ular matnshunoslik va poetika nuqtayi nazaridan muhim ilmiy masalalarni ochib beradi.

Terminologik qatlamda xatolik. MAT, TAT va A.Ulug'ov nashrlarida qayd etilgan "salavoti xamsa" ("besh duo" ma'nosi chiqadi – O.A.) aslida "saloti xamsa", ya'ni "besh vaqt namoz" shaklida bo'lishi kerak. Bu semantik siljish diniy-terminologik aniqlikni buzadi. Levend nashri esa qo'lyozmaga tayanib, atamani to'g'ri shaklda tiklaydi.

Harfiy ramz va poetik mantiq buzilishi. MAT, TAT va boshqa nashrlarda "naydek" shakli uchrasa-da, Levend nashrida "hı" grafemasi qayd etilgan. Levend varianti Islom arkonlarining harflar asosidagi sharhiga oid poetik va ramziy tizimni to'liq ochadi. Shuning uchun "hı" shaklini saqlash matnning ichki konseptual mantig'ini to'liq anglash imkonini beradi.

Fonetik-grafik tafovutlar. Ramazon ro'zasini ifodalashda MAT va Ulug'ov nashrida "o'ruz", TAT va Jabborovda "o'ttuz", Levendda esa "otuz" shakli uchraydi. Tanqidiy matn uchun TAT, Jabborov va Levend variantidagi "o'ttuz" mazmuniy va kontekstual jihatdan asosli. MAT va Ulug'ovdagi "o'ruz" o'qilishi esa grafemik chalkashlik natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Sintaktik-semantik nomukammallik. Zakot bilan aloqador "ko'nglumga nasabqa yetkuncha mol zaxira qilmag'aymen, solmadi va nasabqa yetgan mol zakotin ayirg'uncha ilkimda qolmadi" jumlası MAT, TAT va Ulug'ov nashrida chalkash, yanglish shaklda berilgan. Chunki nasab (arabcha: نسب) – sulola, avlod, qarindoshlik. Bu so'z zakotga doir huquqiy atama bilan bog'liq emas. Nişob (arabcha: نصاب) – shariatda zakot farz bo'lishi uchun zarur bo'lgan mol-mulkning miqdori (masalan, 85 gr. oltin yoki unga teng qiymat). Bu fiqhiy-terminologik tushuncha bo'lib, zakot mavzusida qo'llanilishi mutlaqo zarur. Qolaversa, MAT, TAT va Ulug'ov nashridagi "mol zaxira qilmag'aymen, solmadi" so'zlar qatorida g'alizlik yaqqol seziladi. Levend variantida qo'lyozmadagi kabi sintaktik-semantik jihatdan to'g'ri va to'liq qayd etilgan. Bu farq nafaqat matnning axloqiy-irfoniy mazmunini to'liq ochadi, balki Navoiy fikrining semantik qatlamini mukammal yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlari matnshunosligida hanuz yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud. “Xamsa”ning umumiy hajmi borasida turli manbalardagi baytlar soni o‘rtasida kuzatilayotgan sezilarli tafovutlar, “Lisonu-t-tayr”dagi ayrim baytlarning noto‘g‘ri talqin qilinishi va “Vaqfiya” parchasidagi terminologik, fonetik-grafik hamda sintaktik nomutanosibliklar matnshunoslikning dolzarb muammolari sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu xatoliklar faqat poetik-semantik qatlamni buzibgina qolmay, balki diniy-fiqhiy mazmunning noto‘g‘ri tushunilishiga ham olib kelmoqda. Shu sababli bugungi zamon o‘quvchisini Navoiy ijodiga haqqoniy yaqinlashtirish uchun, eng avvalo, mavjud nashrlarni qayta ko‘rib chiqish, ilmiy-tanqidiy matnlarga tayangan holda ularni mukammallashtirish hamda asliyat bilan bir xilligini ta‘minlash lozim. Buning uchun qo‘lyozmalarni paleografik va filologik jihatdan chuqur tekshirish, variantlarni ilmiy apparatda izchil qayd etish va zamonaviy ilmiy izohlar bilan ta‘minlash zarur. Zero, tanqidiy yondashuv va qo‘lyozmaga sodiqlik prinsiplari asosida tayyorlangan mukammal nashrlar nafaqat navoiyshunoslik, balki umumturkiy matnshunoslik taraqqiyoti uchun mustahkam ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Agâh Sırrı Levend. Ali Şîr Nevaî: Hayatı, sanatı ve kişiliği. 4 ciltli, I cilt. – Ankara: Türk Tarih Kurumu basımevi, 1965. – 307 s.
2. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик, 12-том: Лисон ут-тайр. – Тошкент: “Фан”, 1996. – 357 б.
3. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик, 14-том: Махбуб ул-қулуб. Муншаот. Вақфия. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 1998. – 315 б.
4. Alisher Navoiy. TAT. 10 jildlik, 9-jild: Lison ut-tayr. Majolis ul-nafois. Mahbub ul-qulub. Vaqfiya. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 768 b.
5. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr: (Nasriy bayoni bilan); Mas‘ul muharrir, so‘zboshi muallifi, izoh va lug‘atlar tuzuvchisi Vahob Rahmonov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. – 472 b.
6. Ali Şîr Nevâyî. Külliyyat-i Nevayî (Tıpkıbasım). Topkapı Sarayı Müzesi Kütüphanesi, Revan Nr. 808. Hazırlayan: Günay Kut. – Istanbul: Türkiye yazma eserler kurumu yayinlari, 2020. – 1672 s.
7. Alisher Navoiy. Lisonu-t-tayr. Ilmiy-tanqidiy matn. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1965. – 230 b.
تاشکینت ۱۹۶۵ «فن» نشریاتی. علمی تنقیدی متن لسان الطیر. علیشیر نواوی
8. Jabborov N.: <https://t.me/nurboyjabborov/855>
9. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: “Tamaddun”, 2018. – 520 b.

10. Улуғов А. “Вақфия буюклик далолатномаси”. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2020. – 168 б.

11. Гиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 372 б.

12. Шодмонов Н., Имомова Г. Адабий манба ва матн тасарруфи // Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари (Мақолалар тўплами). – Қарши: “Насаф” нашриёти, 2013. – Б.13–21.